

Maqola nomi: Patriarxat bilan kelishuv

Asl maqola nomi: Bargaining with Patriarchy

Muallif: Deniz Kandiyoti

Manba: *Gender and Society*, Sep., 1988, Vol. 2, No. 3, Special Issue to Honor Jessie Bernard (Sep., 1988), pp. 274–290

Nashriyot: Sage Publications, Inc.

Doimiy havola: <https://www.jstor.org/stable/190357>

Mazkur maqola professor Deniz Kandiyoti ruxsati bilan o'zbek tiliga tarjima qilindi. Ushbu ruxsat uchun samimiy minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Tarjima O'zbekistonda gender zo'ravonligiga qarshi kurashga qaratilgan mustaqil media-loyiha **Nemolchi.uz** tashabbusi doirasida amalga oshirildi. Ushbu loyiha jamiyatda strukturaviy zo'ravonlik, ijtimoiy adolat va ayollar huquqlari haqidagi bilimlarni keng jamoatchilikka, shu jumladan, o'zbek tilida ham yetkazishni maqsad qilgan.

Tarjimon: Kamola Shorustamova

Tarjima sanasi: 2025-yil

Tarjima Shveytsariyaning O'zbekistondagi Elchixonasi ko'magida tayyorlangan.

Tarjimadan foydalanish shartlari:

Mazkur tarjimani erkin o'qish, ta'limiy va ilmiy maqsadlarda foydalanish mumkin, biroq bunda asl manba va asl nashrga havola ko'rsatilishi shart. Tarjimonning ismi va **Nemolchi.uz** loyihasi ko'rsatilishi ham maqsadga muvofiqdir.

Patriarxat bilan kelishuv

Deniz Kandiyoti

Buyuk Britaniya, Richmond kolleji

Ushbu maqolada ayollarning strategiyalari va kurashish mexanizmlarini tizimli qiyosiy tahlil qilish, zamonaviy feminist nazariyada uchraydigan noaniq, mavhum patriarxat tushunchasiga qaraganda, patriarxal tizimlarni madaniy va tarixiy jihatdan chuqurroq tushunishga olib kelishi ta'kidlanadi. Ayollar o'z hayotidagi qarorlarni ma'lum bir cheklovlar doirasida qabul qilishga majbur bo'ladilar. Men bu holatni "patriarxal kelishuvlar" deb atayman. Patriarxatning turli shakllari ayollarga o'ziga xos "o'yin qoidalari"ni taqdim etadi va xavfsizlikni ta'minlash hamda hayot imkoniyatlarini optimallashtirishda turli strategiyalarni qo'llashni talab qiladi, zulmga qarshi faol yoki passiv qarshilik ko'rsatish imkoniyati esa har doim ham bir xil bo'lmaydi. Maqolada erkaklar hukmronligining ikki tizimi taqqoslanadi: biri – ko'p xotinlilik mavjud bo'lgan, biroq ayollar uchun nisbiy mustaqillik va erkinlik bilan muvozanatlangan Sahroi Kabirning janubidagi Afrikaga xos bo'lgan tizim; ikkinchisi esa – Janubiy va Sharqiy Osiyo hamda musulmon Yaqin Sharqiga xos bo'lgan klassik patriarxiya. Maqola yakunida patriarxal kelishuvlarning yemirilishi va o'zgarishiga olib keladigan omillar hamda bu jarayonlarning ayollar ongiga va kurashlariga ta'siri tahlil qilinadi.

Zamonaviy feministik nazariya tomonidan ilgari surilgan barcha tushunchalar ichida patriarxiya ehtimol eng ko'p ishlatiladigan, biroq ayrim jihatlari bilan yetarlicha nazariy asoslanmagan tushuncha hisoblanadi.

MUALLIFNING IZOHI: *Ushbu maqolaning dastlabki versiyasi "Patriarxatni dekonstruksiya qilish" nomi bilan Hindistonning Dehli shahrida bo'lib o'tgan Sotsiologiya bo'yicha O'n birinchi jahon kongressida, shuningdek, AQShning Oregon shtati, Yujin shahridagi Oregon universitetining Ayollar jamiyatini o'rganish markazida taqdim etilgan. Men Joan Acker'ga doimiy qo'llab-quvvatlagani uchun, Maxine Molyneux, Bina Agarwal va Marjorie Mbilinyi'ga ushbu mavzu bo'yicha ilhomlantiruvchi muhokamalari uchun, Judith Stacey'ga foydali muharrirlik izohlari uchun va Judith Lorber'ga mohirona tahriri uchun chuqur minnatdorlik bildiraman. Qayta nashrga oid so'rovlar quyidagi manzilga yuborilishi lozim: Professor Deniz Kandiyoti, 10 Ashmount Road, London N19 3BH, England.*

GENDER & SOCIETY, Vol. 2 No. 3, September 1988 274-290

© 1988 Sociologists for Women in Society

Bu holat e'tiborsizlik natijasi emas — chunki ushbu masalaga oid yozilgan adabiyotlar ancha ko'p — balki zamonaviy feminizmga ushbu atamaning rivojlanish sharoitlariga bog'liqdir.

Radikal feministlar ushbu tushunchani juda keng ma'noda, deyarli har qanday erkaklar hukmronligiga oid holatlarga nisbatan qo'llashga undagan bo'lsa, sotsialist feministlar asosan patriarxiya va kapitalistik jamiyatdagi sinfiy munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish bilan cheklanganlar. Natijada, patriarxiya atamasi ko'pincha erkaklar hukmronligining haddan tashqari yakka, monolitik tasavvurini uyg'otadi, bu esa genderlar o'rtasidagi madaniy va tarixiy jihatdan o'ziga xos munosabatlarini ochib bermasdan, aksincha mavhumlashtirib yuboradi.

Men patriarxat haqidagi nazariy munozaralarni ko'rib chiqishni maqsad qilmaganman (Barrett 1980; Beechey 1979; Delphy 1977; Eisenstein 1978; Hartmann 1981; McDonough va Harrison 1978; Mies 1986; Mitchell 1973; Young 1981). Buning o'rniga, patriarxatning turli shakllarini aniqlash uchun ayollarning ular bilan qanday kurashish strategiyalarini tahlil qilish orqali muhim va nisbatan e'tibordan chetda qolgan yondashuvni taklif qilmoqchiman. Men shuni ta'kidlamogchiman-ki, ayollar har doim aniq cheklovlar doirasida yo'l tutadilar va bu sharoitlar har qanday jamiyatga xos bo'lgan, men "patriarxal kelishuv"¹ deb ataydigan tuzumning asosiy mohiyatini ochib beradi hamda uni belgilaydi. Bunday patriarxal kelishuvlar sinf, kasta yoki etnik mansublikka qarab turlicha ko'rinishda bo'lishi mumkin. Ushbu kelishuvlar ayollarning genderga oid ongini (subyektivligini) shakllantirishda kuchli ta'sir ko'rsatadi va turli kontekstlarda gender mafkurasining mohiyatini belgilaydi. Shuningdek, bu kelishuvlar ayollarning zulmga nisbatan faol yoki passiv qarshilik ko'rsatish imkoniyatlari va shakllariga ham ta'sir qiladi. Bundan tashqari, patriarxal kelishuvlar abadiy yoki o'zgarmas tuzilmalar emas, balki genderlar o'rtasidagi munosabatlarni qayta ko'rib chiqish va kurashning yangi sohalarini yuzaga keltiradigan tarixiy o'zgarishlarga moyildir.

Misol tariqasida, ayollarga ta'sirini muhokama qilish maqsadida ideal-tipik tarzda tasvirlangan erkaklar hukmronligining ikki tizimini taqqoslayman. Bu ideal turlardan tizimli, qiyosiy va empirik ma'lumotlar bilan to'ldirilishi mumkin bo'lgan nazariy vositalar sifatida foydalanaman, garchi ushbu maqola ehtimoliy farqlarning umimiy tasviridan ortiq hech narsani taqdim etishga da'vo qilmasa-da. Ushbu ikki modeldan biri - Sahroi Kabirdan janubdagi Afrika, ikkinchisi esa Yaqin Sharq, Janubiy Osiyo va Sharqiy Osiyodan olingan misollarga

asoslangan. Maqsadim – oilaviy tuzilmalarning turli shakllarini ifodalovchi uzluksizlikni yoritishdir. Bu uzluksizlik bir tomonda Sahroi Kabirdan janubdagi poliginiya, ya'ni ko'p xotinlik tizimida uchraydigan ona-bola birliklarining nisbiy mustaqilligini o'z ichiga olgan kamroq markazlashgan oilaviy tuzilmalardan, boshqa tomonda esa Caldwell (1978) "patriarxal kamar" deb atagan hududlarda keng tarqalgan erkak boshchiligidagi ancha markazlashgan oilaviy tuzilmalargacha davom etadi. Maqolaning so'nggi bo'limida esa patriarxal kelishuvlarning yemirilishi va o'zgarishi, hamda bu jarayonlarning ayollar ongiga va ularning kurashlariga ta'sirini tahlil qilaman.

MUSTAQILLIK VA NOROZILIK: SAHROI KABIRNING JANUBIDAGI AFRIKADAN BA'ZI MISOLLAR

Hayotimdagi kuchli "madaniy shok" holatiga Sahroi Kabirning janubidagi Afrikada ayollar ishtirokidagi qishloq xo'jaligi rivojlantirish loyihalari haqidagi adabiyotlarni o'rganayotganimda duch kelganman (Kandiyoti, 1985). Men patriarxatning faqat bir turiga o'rganib qolganim bois (bu haqda keyinroq, klassik patriarxat bo'limida batafsil to'xtalaman), o'zim uchratishga hali tayyor bo'lmagan holatlarga to'qnashdim. Adabiyotlarda ayollarning o'z mehnatining qadrsizlantirilishiga qarshi turgani va, eng muhimi, o'z mahsulotlarini erlari tomonidan butunlay egallanishiga yo'l qo'ymagani haqida ko'plab misollar keltirilgan edi. Keling, ba'zi misollarni ko'rib chiqamiz.

Yangi qishloq xo'jaligi loyihalari erkaklarni resurslar va kredit bilan ta'minlagan va ular oila boshliqlari sifatida rafiqalarining bepul mehnatidan foydalana oladi deb taxmin qilingan joylarda muammolar paydo bo'layotgandek ko'rindi. Keniyadagi Mwea sug'oriladigan sholi xo'jaligida ayollar o'z yeriga ega bo'lish imkoniyatidan mahrum edilar. Ular uchun muqobil imkoniyatlarning yo'qligi va erlarining daromadlari ustidan hech qanday nazoratga ega emasligi tufayli hayot shunchalik og'irlashdiki, ayollar ko'pincha erlarini tark etishardi (Hanger va Moris 1973). Gambiyada yana bir sholi yetishtirish loyihasida, sug'oriladigan yerlar va kreditlar faqat erkaklarga berilgan. Vaholanki, an'anaviy ravishda aynan ayollar botqoqlarda sholi yetishtirardi va uzoq vaqtdan beri erkaklar va ayollar alohida ekin ekib, o'z hosillarini nazorat qilish odati mavjud edi. Ayollarning umumiy va shaxsiy yerlarga mehnat taqsimoti bo'yicha odatiy majburiyatlari ularni erlarining sug'oriladigan sholi dalalarida bepul ishlash talablaridan himoya qilardi. Erkaklar ayollarining mehnatidan foydalanish uchun ularga ish haqi to'lashlari yoki sug'oriladigan yer berishi kerak edi. Yomg'irli mavsumda esa

ayollar o'z botqoq sholilarini yetishtirish imkoniyatiga ega bo'lgan paytda erkaklar uchun mehnat tanqisligi yuzaga kelardi. Erkaklar shunchaki ayollar o'z dalalariga bormaydigan kunlarni kutishga majbur bo'lishardi (Dey 1981).

Conti (1979) tomonidan tasvirlangan Yuqori Voltadagi kichik fermer xo'jaliklari uchun mo'ljallangan boshqaruvli joylashtirish loyihasida ham erkaklarga yer va kredit berilgan, ayollar esa hech qanday mustaqil resurslarga ega bo'lmagan, kundalik uy ishlari uchun esa zarur infratuzilma juda sust darajada bo'lgan. Natijada ayollar norozilik bildirgan va hamkorlik qilishdan bosh tortganlar. Xuddi shunday tarzda Roberts (chop etilishi kutilayotgan asarida) Afrika sharoitida ayollarning o'z mustaqilligini oshirish uchun qo'llaydigan usullarini shunga o'xshash tarzda tasvirlaydi. Masalan, Nigeriyadagi Yoruba ayollari erlariga ko'rsatayotgan qishloq xo'jaligi mehnat xizmatlari shartlarini muzokara qiladi, biroq ular o'z vaqt va kuchlarini savdo-sotiq faoliyatlariga yo'naltirishga intiladilar — bu esa ularga o'zlarini moddiy jihatdan ta'minlash hamda oxir-oqibatda bunday xizmatlardan voz kechish imkonini beradi. Islomiy ajratilish amaliyotiga rioya qiluvchi Hausa ayollari esa erlarining ularga mehnat talabi qo'yish imkoniyatlarini cheklab qo'yganlar. Ular o'z mehnatlarini asosan tayyor ovqat mahsulotlarini sotishga yo'naltirganlar va savdo orqali daromad topadilar.

Qisqacha aytganda, Afrikadagi ko'p xotinlilik ayollarga xavf tug'dirsada, ular o'zlarining nisbiy mustaqilligini imkon qadar oshirishga intiladilar. Erkaklarning o'z ayollarini ta'minlash borasidagi mas'uliyati ba'zi hollarda me'yoriy hisoblansa-da, amalda ancha past darajada. Odatda, ayol o'zining va farzandlarining ehtiyojlarini, jumladan ta'lim xarajatlarini qoplash uchun asosiy javobgardir, bunda erining yordami turlicha bo'lishi mumkin. Ayollar erlariga to'liq qaram bo'lishdan deyarli hech narsa yutmaydilar, aksincha ko'p narsani yo'qotishlari mumkin. Shu bois ular o'zlari saqlab qolishga urinayotgan nozik muvozanatni buzadigan loyihalarga haqli ravishda qarshilik ko'rsatmoqdalar. Ayollar o'z e'tirozlari orqali o'zlari mustaqil faoliyat yurituvchi sohalarini himoya qilmoqdalar.

Ba'zi tarixiy misollarda ayollarning mustaqilligi va erkaklarning xotinlari oldidagi mas'uliyati o'rtasidagi haqiqiy qarama-qarshilikni kuzatish mumkin. Mann (1985) ta'kidlashicha, xristian nikohida ayolning eriga qaramligiga qaramay, Lagosdagi Yoruba ayollari buni ishtiyoq bilan qabul qilishgan, chunki ular ko'proq himoyaga ega bo'lishlariga ishonishgan. Buning aksi o'laroq, Zambiyada erkaklar an'anaviy nikohga nisbatan zamonaviy nikohga qarshilik ko'rsatadilar, chunki bu ularga

ayollari va farzandlari oldida ko‘proq majburiyatlar yuklaydi (Munachonga 1982). Er-xotin munosabatining shunday shakli borki, unda juftliklar jinsiy va mehnat xizmatlarini ochiq ravishda kelishib olishi mumkin. Bu holat yanada aniqroq va belgilangan kelishuvlar uchun asos yaratadi. Ashanti nikohini tahlil qilar ekan, Abu (1983, 156-bet) uning eng yorqin xususiyati sifatida “er-xotinning resurslari va faoliyatlarining alohidaligi hamda munosabatlardagi muzokara elementining ochiq-oydinligi”ni alohida ta’kidlaydi. Ko‘pxotinlilik va erkaklar hamda ayollarning o‘z qarindoshlariga nisbatan doimiy majburiyatlari mavjud bo‘lgan bunday holatlarda “oila” yoki “oilaviy tuzilma” tushunchasi yagona jamoaviy birlik sifatida shakllanmaydi.

Shubhasiz, Afrika qarindoshlik tizimlarida nikoh shakllari, yashash joyi, nasl-nasab va meros qoidalariga nisbatan muhim farqlar mavjud (Guyer va Peters 1987). Bu farqlar to‘liq madaniy va tarixiy jarayonlarga, jumladan, Afrika jamiyatlarining jahon iqtisodiyotiga qo‘shilishining turli usullariga asoslanadi (Mbilyini 1982; Murray 1987; S. Young 1977). Shunga qaramay, keng ma’noda belgilangan Afrika-Karib dengizi davlatlari namunasi doirasida biz mafkurada ham, amaliyotda ham er-xotin oilasining korporativ bo‘lmaganligining eng yaqqol misollarini topamiz (ya’ni, er-xotin oila iqtisodiyotida yagona, umumiy birlik sifatida qaralmasligi). Bu holat ayollarning nikoh va bozor strategiyalarini belgilashda muhim o‘rin tutadi. Tarixiy o‘zgarishlar haqidagi tadqiqotlar (masalan, Etienne va Leacock, 1980) shuni ko‘rsatadiki, mustamlakachilik ayollarning nisbiy mustaqilligi uchun moddiy asosni (masalan jamoa yerlaridan foydalanish huquqi yoki an’anaviy hunarmandchilik ishlab chiqarishi kabi) yo‘q qildi. Bunda na bozor, na nikoh imkoniyatlarida muqobil yengilliklar taklif etilmadi. Yuqorida muhokama qilingan zamonaviy rivojlanish loyihalari ham ko‘pincha erkak rahbarligidagi korporativ oila modelini asos qilib oladi yoki majburan joriy etadi. Bu esa ayollar uchun mavjud imkoniyatlarni cheklab, xavfsizlik va farovonlikka eltuvchi boshqa yo‘llarni ochmaydi. Ayollar bu o‘zgarishlarni, ayniqsa ular to‘satdan sodir bo‘lsa, erkaklar hukmronlik qiladigan tartib bilan mavjud kelishuvlarning buzilishi sifatida qabul qiladilar. Shu sababli, ular bu o‘zgarishlarga ochiqdan-ochiq qarshilik ko‘rsatadilar.

BO‘YSUNUVCHANLIK VA MANIPULYATSIYA: KLASSIK PATRIARXIYA OSTIDAGI AYOLLAR

Ayollarning ochiq qarshilik ko‘rsatish misollari men “klassik patriarxat” deb ataydigan tizimga ularning moslashuvidan keskin farq qiladi. Klassik

patriarxatning yaqqol namunasini Shimoliy Afrika, musulmon Yaqin Sharq (jumladan Turkiya, Pokiston va Eron), hamda Janubiy va Sharqiy Osiyo (xususan, Hindiston va Xitoy) kabi geografik hududlarda kuzatish mumkin.²

Klassik patriarxatning davomiyligini ta'minlovchi asosiy omil bu patrilokal (ya'ni erkak tarafning oilasida shakllanadigan) kengaytirilgan oila tizimidir. Bu hodisa odatda agrar jamiyatlarda dehqonchilik qatlamining shakllanishi bilan ham bog'liq (E. Volf 1966). Bunday xonadon shakli odatda agrar jamiyatlarda dehqonlar qatlamining avloddan-avlodga o'tishini ta'minlaydi. Demografik va boshqa cheklovlar uch avlodli patrilokal xonadonlarning son jihatdan ustunligini kamaytirgan bo'lsa-da, bu model hanuzgacha kuchli madaniy ideal ekanligi shubhasizdir. Katta yoshli erkakka (odatda ota yoki qaynota) boshqalar, shu jumladan yosh erkaklar ustidan ham hokimiyat beradigan patriarxal kengaygan oilaning vujudga kelishi, ehtimol, oilaning davlat tomonidan qamrab olinishi va nazorat qilinishi (Ortner 1978), hamda ortiqcha mahsulot nazoratining qarindoshlikka asoslangan tizimdan soliq tizimiga o'tishi (E. Volf 1982) bilan bog'liqdir. Patrilineal (ota tarafdan nasl davom ettiriladigan) va patrilokal tizimning ayollarga ta'siri nafaqat bir xil, balki hinduizm, konfutsiychilik va islom kabi madaniy va diniy chegaralarni kesib o'tuvchi nazorat va bo'ysunish shakllarini ham o'z ichiga oladi.

Klassik patriarxat tizimida qizlar juda yoshligidanoq turmushga beriladi va ular erlarining otasi boshchiligidagi oilaga ko'chib boradilar. U yerda ular nafaqat barcha erkaklarga, balki katta yoshli ayollarga, ayniqsa qaynonalariga bo'ysunishga majbur bo'ladi. Bu holat qizning o'z oilasi bilan to'liq aloqani uzishi nikoh amaliyotidagi endogamiya (ya'ni o'z qabilasi ichida turmush qurish) darajasi va or-nomus tushunchalariga qarab farqlanadi. Masalan, turklar orasida endogamiya darajasi pastroq bo'lib, ayolning sha'ni asosan erning zimmasida bo'ladi. Arablar orasida esa qarindoshlar o'rtasidagi munosabatlar ancha kuchliroq, shuning uchun kelinchakning ota-onasi turmushga chiqqan qizining sha'nini himoya qilishda ham manfaaddor, ham so'z huquqiga ega bo'ladi (Meeker 1976). Natijada, turk ayolining an'anaviy mavqei inqilobdan oldingi Xitoyga xos bo'lgan "begona kelin" (yangi oilada o'zini begonadek his qiladigan) holatiga ko'proq o'xshaydi. Arab ayolining patriarxal xonadondagi o'rni esa endogamiya va o'z qarindoshlariga murojaat qilish imkoniyati tufayli nisbatan yengilroq bo'lishi mumkin.

Keng tarqalgan nikoh to'lovi sep yoki qalin bo'lishidan qat'i nazar, an'anaviy patriarxal tizimda ayollar odatda otalarining merosiga da'vo qilmaydilar. Ularning seplari to'g'ridan-to'g'ri kuyovning qarindoshlariga o'tkazilgani va yer kabi unumdor mulk shaklida bo'lmagani sababli, bular o'limdan oldingi meros turi hisoblanmaydi (Agarwal 1987; Sharma 1980). Musulmon jamiyatlarida ayolning meros huquqini talab qilishi, ajralish yoki eri tomonidan qattiq tazyiq holatida yagona tayanchi bo'lgan aka-ukalarining mehrini, qo'llab-quvvatlovini yo'qotishi bilan barobar. Yosh kelin erining xonadoniga amalda mulkdan mahrum etilgan shaxs sifatida kiradi va faqat o'g'il farzand tug'ish orqaligina patrilineal tizimda o'z o'rnini topishi mumkin.

Ushbu tizim ayollarning mehnatini ham, zurriyotini ham to'liq o'zlashtiradi va ularning mehnati hamda ishlab chiqarishga qo'shgan hissasini ko'zga ko'rinmas darajaga tushiradi. Patriarxal kengaytirilgan oilada ayolning hayot sikli shundayki, yosh kelin sifatida boshdan kechirgan mahrumlik va qiyinchiliklar vaqt o'tishi bilan o'z kelinlari ustidan nazorat va hokimiyat o'rnatish bilan almashadi. Uy ichidagi ayol hokimiyatining siklik xususiyati va ayolning keksaygach yoshi ulug' ayol sifatida hukmronlikka erishish umidi, ushbu patriarxal tizimni ularning o'zlari tomonidan ichki ravishda qabul qilishiga olib keladi. An'anaviy patriarxatda erkaklarga bo'ysunish keksa ayollarning yosh ayollar ustidan nazorat o'rnatishi bilan muvozanatlanadi. Biroq ayollar faqat o'zlari boshqara oladigan mehnat kuchiga va turmushga chiqqan o'g'illari orqali keksalik ta'minotiga ega bo'ladilar. O'g'illar ayol uchun eng muhim resurs bo'lgani sababli, ularning umrbod sadoqatini ta'minlash doimiy tashvishga aylanadi. Keksa ayollar er-xotin aloqasini ikkinchi darajali qilish va o'g'illarining asosiy sadoqatini talab qilish uchun yoshlar o'rtasidagi romantik muhabbatni bostirishdan manfaatdor bo'ladilar. Yosh ayollar esa qaynonalarining nazoratini chetlab o'tishga va iloji bo'lsa undan qochishga intiladi. Bu kurash geteroseksual aloqaga zarar yetkazishi haqida madaniy jihatdan o'ziga xos misollar mavjud (Boudhiba 1985; Johnson 1983; Mernissi 1975; M. Wolf 1972), biroq umumiy holat juda o'xshash.

Klassik patriarxatga sinf yoki tabaqa ta'siri qo'shimcha murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Boy qatlamlar orasida ayollarning uy ishlari tashqarisidagi faoliyatlardan chetlatilishi — purdah (parda) tizimi va hijob kabi izolyatsiya va cheklov amaliyotlari orqali — ko'pincha ijtimoiy mavqe belgisi sifatida institutlashtirilgan. Parda instituti va boshqa shunga o'xshash maqom belgilari ayollarning bo'ysunishini va ularning erkaklarga iqtisodiy qaramligini yanada kuchaytiradi. Biroq, cheklovchi amaliyotlarga rioya qilish oilaviy maqomni saqlab qolishning

shunchalik muhim elementiki, hatto bu iqtisodiy qiyinchiliklarni keltirib chiqarsa ham, ayollar qoidalarini buzishga qarshilik ko'rsatadilar. Ular Afrikaning ba'zi hududlarida ayollar shug'ullanadigan savdo faoliyati kabi iqtisodiy jihatdan foydali imkoniyatlardan voz kechib, o'zlarining hurmatli va himoyalangan uy bekasi rollariga mos keladigan muqobil variantlarni tanlaydilar va shu sababli ko'proq ekspluatatsiyaga uchraydilar. Narsapurdagi hind to'quvchi ayollarini o'rganishda Mies (1982, 13-bet) shunday izoh beradi:

"Ayollarning uylarda saqlanishi ilgari mavjud bo'lgan yashirinlik shakllari bilan oqlanishi mumkin, ammo bu endi boshqa tusga kirgan. Kapu ayollari endi gosha — feodal jangchi kastaning xonimlari emas, balki jahon bozori uchun ishlab chiqaradigan uy bekalari va ishchilari. To'quvchi ayollar misolida bu g'oya deyarli moddiy kuchga aylandi. Butun tizim bu ayollar uydan tashqarida ishlay olmaydi, degan qarashga asoslangan."

Shunday qilib, oiladagi noqulay mehnat munosabatlariga qarshi kurashishga intilayotgan Sahroi Kabirdan janubdagi Afrika ayollaridan farqli o'laroq, an'anaviy patriarxat hukm surgan hududlardagi ayollar ko'pincha o'z mehnatining muntazam qadrsizlanishiga olib keladigan qoidalariga iloji boricha uzoqroq amal qilishga harakat qiladilar. Ularning hokimiyat mavqeining davriy o'zgarishlari va ijtimoiy maqom bilan bog'liq mulohazalar, o'z bo'ysunishlarini davom ettirishda faol ishtirok etishlariga sabab bo'ladi. Ular ko'proq o'g'illari va erlarining his-tuyg'ularini boshqarish orqali o'z xavfsizliklarini ta'minlaydigan shaxslararo strategiyalarni qo'llashni ma'qul ko'radilar. M. Wolfning (1972) "xitoycha ona markazli oila modeli" haqidagi teran tahlili ko'rsatganidek, bu strategiya hatto keksaygan erkak patriarxning hokimiyatini ayoliga boy berishga olib kelishi mumkin. Garchi bu shaxsiy kuch taktikalari umumiy patriarxal tuzumning ayollar uchun noqulay tuzilmasini tubdan o'zgartirmasa-da, ayollar o'z hayot imkoniyatlarini maksimal darajada oshirish bo'yicha mohir mutaxassislarga aylanadilar.

Xitoydagi "ayollar konservatizmi" haqida fikr bildirar ekan, Johnson (1983, 21-bet) shunday deydi: "Qiziq tomoni shundaki, ayollar passivlikka va erkaklarning to'liq nazoratiga qarshilik ko'rsatish harakatlari orqali o'zlarini ezgan tizimda manfaatdor ishtirokchilarga aylanishdi." M. Wolf (1974) xitoylik ayollarning 1950-yildagi Nikoh to'g'risidagi qonunga qarshilik ko'rsatishi haqida ham shunday fikr bildiradi; aslida ushbu qonundan eng ko'p foyda ko'rishi kerak bo'lganlar aynan o'zlari edi. U xitoylik ayollar eski oilaviy tizimni butunlay

o'zgartirishni istamasliklariga qaramay, endi oilaviy munosabatlarni boshqarish orqali ta'minlanishi mumkin bo'lgan cheklangan xavfsizlik bilan qanoatlanmaydilar, degan xulosaga keladi.

Klassik patriarxatning boshqa sohalarida moddiy sharoitlarning o'zgarishi me'yoriy tartibga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Cain (1979, 410-bet) ta'kidlaganidek, bu tizimning asosiy va paradoksal tomoni shundaki, "erkaklar hokimiyati moddiy asosga ega, erkaklar mas'uliyati esa me'yoriy jihatdan boshqariladi." Ularning Bangladeshdagi qishloqni o'rganishi qashshoqlikning qarindoshlar o'rtasidagi majburiyat aloqalariga, xususan, erkaklarning ayollarga nisbatan me'yoriy majburiyatlarini bajarishiga qanday ta'sir ko'rsatishiga ajoyib misol bo'la oladi. Qishloqlardagi bevalarning deyarli uchdan bir qismi o'z oilalarining boshliqlari bo'lib, yollanma mehnat orqali tirikchilik qilishga harakat qilishardi. Biroq, patriarxat tomonidan yaratilgan va qo'llab-quvvatlangan mehnat bozori taqsimoti ularning ish imkoniyatlarini juda cheklab qo'ygan, shu bois ular juda past va beqaror ish haqiga ham rozi bo'lishga majbur bo'lganlar.

Qizig'i shundaki, klassik patriarxatda ayollar duch keladigan xavf va noaniqliklar ularni ko'p farzand ko'rishga rag'batlantiradi. Biroq, kuchayib borayotgan qashshoqlik sharoitida bu ularni iqtisodiy himoya bilan ta'minlay olmaydi. Greeley (1983) Bangladeshdagi yer egaligigi bo'lmagan oilalarning, jumladan turmushga chiqqan ayollar mehnatiga tobora ko'proq qaram bo'lib borayotganini qayd etib, bu holat patriarxal oila barqarorligiga qanday putur yetkazayotganini muhokama qiladi. Stacey (1983) inqilobdan avvalgi Xitoy oilasidagi inqirozni tahlil qilib, an'anaviy tizimning moddiy va g'oyaviy asoslari yemirilishini namunali tarzda tasvirlaydi. U shuningdek, konfutsiylik patriarxiyasining yangi demokratik va sotsialistik shakllarga qanday almashtirilgani va o'zgarganini o'rganadi. Keyingi bo'limda men bunday o'zgarish jarayonlarining ayrim oqibatlarini tahlil qilaman.

PATRIARXAL KELISHUVLARNING INQIROZI: KONSERVATIZMGA CHEKINISHMI YOKI RADIKAL NOROZILIK?

Klassik patriarxatning moddiy asoslari yangi bozor kuchlari, qishloq hududlariga kapitalning kirib kelishi (Kandiyoti 1984) yoki surunkali qashshoqlik jarayonlari ta'sirida yemiriladi. Bu tizimning buzilishiga olib keladigan yo'l turli xil bo'lsa-da, uning oqibatlari deyarli bir xil. Keksa erkaklarning yosh erkaklar ustidan hukmronligi va ayollarning uy-ro'zg'or doirasida himoyalaniishi - bu erkaklar yer, chorva yoki savdo

kapitali kabi hayotiy ahamiyatga ega qo'shma merosning ma'lum shakllarini nazorat qiladigan tizimning asosiy belgilari edi. Mol-mulksiz va undan mahrum bo'lganlar orasida esa, har bir oila a'zosining tirik qolish uchun hissa qo'shishi zarurligi tufayli, erkaklarning ayollarni iqtisodiy himoya qilishi haqidagi tasavvur afsonaga aylanadi.

Klassik patriarxatning yemirilishi natijasida yosh erkaklar otalaridan ertaroq ozod bo'lib, ota xonadonidan ajralmoqdalar. Bu jarayon ayollarning ancha yoshligida qaynona nazoratidan chiqib, o'z ro'zg'orini boshqarishini nazarda tutsa-da, ularning o'zlari ham kelajakda itoatkor kelinlar qurshovida yashash imkoniyatidan mahrum etmoqda. O'rtada qolgan ayollar avlodi uchun bu o'zgarish chinakam shaxsiy fojia bo'lishi mumkin, chunki ular avvalgi patriarxal tizimning og'ir shartlariga bo'ysunishgan, ammo uning va'da qilingan afzalliklaridan foydalana olmayaptilar. M. Wolf (1975) Xitoyda ayollar orasidagi o'z joniga qasd qilish holatlarini o'rganib, 1930-yillardan boshlab tendensiyaning o'zgarganini aniqladi. Ilgari yosh ayollar, ayniqsa yangi kelinlar orasida yuqori bo'lgan o'z joniga qasd qilish darajasi, endi 45 yoshdan oshgan ayollar orasida keskin oshgan. Wolf bu o'zgarishni o'g'illarning ozod bo'lishi va ular turmush o'rtog'ini tanlashda oilaviy nazoratdan qochish imkoniyatiga ega bo'lgani bilan bog'laydi. Bu esa keksa ayolning qudrati va qaynona sifatidagi obro'sini yo'qotishiga olib kelmoqda.

Klassik patriarxat ayollar yo'liga qo'yadigan to'siqlar, har qanday iqtisodiy va hissiy xavfsizlikdan ustun bo'lishiga qaramay, ayollar ko'pincha o'zgarish jarayoniga qarshilik ko'rsatmoqdalar. Buning sababi, ular eski me'yoriy tartibning qo'llaridan chiqib ketayotganini ko'radilar, biroq uning o'rnini egallaydigan kuch beruvchi muqobil imkoniyatlarni ko'rmaydilar. Ayollar manfaatlarini kengroq muhokama qilishda Molyneux (1985, 234-bet) ta'kidlaydiki:

"Bu ko'pincha taxmin qilinganidek, faqat 'soxta ong' tufayli emas (garchi bu omil bo'lishi mumkin), balki bunday qisman amalga oshirilgan o'zgarishlar ba'zi ayollarning qisqa muddatli amaliy manfaatlariga tahdid solishi yoki himoya shakllarini yo'qotish bilan bog'liq xarajatlarga olib kelishi va bu yo'qotish boshqa yo'l bilan qoplanmasligi mumkin."

Shunday qilib, klassik patriarxiya inqirozga yuz tutganida, ko'plab ayollar erkaklarni o'z majburiyatlarini bajarishga majbur qilish uchun bor kuchlarini ishga solishda davom etadilar. Va faqat eng og'ir bosim ostida bo'lmasa, o'zlariga nisbatan hurmatni yo'qotish orqali belgilangan qoidalaridan chiqib ketib, da'volari asosini zaiflashtirishni istamaydilar.

Ularning passiv qarshiligi, itoatkorlik va odob evaziga himoya talab qilish shaklida, shu maxsus patriarxal kelishuvdagi o'z ulushini talab qilishdan iborat bo'ladi.

Bu kontekstdagi ko'plab ayollarning mehnat bozorida ishlashga majbur bo'lgan holatlarida, an'anaviy iffat ramzlariga – masalan, hijob o'rashga kuchliroq tayanish holati kuzatiladi. Ko'pincha, o'z xohishlariga zid ravishda, ular uydan tashqarida ishlaydilar va shu tariqa "ochiq"da qoladilar; endi ular himoyaga loyiq ekanliklarini ko'rsatish uchun o'z ixtiyorlaridagi barcha ramziy vositalardan foydalanishlari zarur. Xumayniyning ayollarni uyda ushlab turish haqidagi chaqiriqlari, zulm elementlari aniq ko'rinib turganiga qaramay, ko'plab eronlik ayollar orasida qizg'in qo'llab-quvvatlanganini ta'kidlash muhimdir. Erkaklar mas'uliyatini oshirishning yashirin va'dasi ayollar uchun mavjud imkoniyatlar doirasi juda cheklangan muhitda ularning dastlabki patriarxal kelishuvining yaxlitligini tiklaydi. Azari (1983, 68-bet) ta'kidlashicha, yosh ayollar niqobni qabul qiladilar, chunki "islomiy tartib ularga yuklagan cheklov, bu tartib va'da qilgan xavfsizlik, barqarorlik va taxminiy hurmat evaziga to'lanishi kerak bo'lgan kichik to'lov edi."

Klassik patriarxatning inqiroziga javoban ayollar konservatizmining ushbu tahlili, ayollar uchun mavjud bo'lgan barcha mumkin bo'lgan munosabatlarni qamrab olmaydi. U shunchaki ma'lum bir tizimning ichki mantig'ida muayyan strategiyaning o'rnini ko'rsatib berishga qaratilgan bo'lib, bunga o'xshash holatlarni G'arbiy Yevropa va AQShning industrialashgan jamiyatlari kabi mutlaqo boshqa kontekstlarda ham kuzatish mumkin. G'arb maishiy hayoti o'zgarishi bo'yicha tarixiy va zamonaviy tahlillar patriarxal kelishuvlarning o'zgarishini nazarda tutadi. Gordon (1982) XIX va XX asrlardagi tug'ruq nazorati bo'yicha feministik yondashuvlar haqidagi tadqiqotida "ixtiyoriy onalik" strategiyasini ayollarning ahvolini yaxshilashga qaratilgan kengroq hisob-kitob sifatida taqdim etadi. Cott (1978) tomonidan viktorian davridagi ayollar orasida tarqalgan "ehtirosdan xoli bo'lish" mafkurasi tahlili ham ayollar tanlovining strategik xarakterini ko'rsatadi.

Zamonaviy davr uchun Ehrenreich (1983) AQShdagi oq tanli o'rta sinf patriarxal kelishuvlarining buzilishini tahlil qiladi. U 1950-yillardan boshlab erkaklarning boquvchi rolidan asta-sekin voz kechishini kuzatadi va ayollarning ko'proq mustaqillik talablari, erkaklarning oilaviy mas'uliyati allaqachon ancha kamaygan va nikohdan tashqari munosabatlar erkaklar uchun sezilarli darajada ijtimoiy maqbullikka erishgan paytda paydo bo'lganini ta'kidlaydi. Kuchli g'oyaviy safarbarlikka qaramay, shifokorlar, maslahatchilar va psixologlar kabi

mutaxassislar mas'uliyatli erkak boquvchi va ayollarni uy bekasi ekanligi g'oyasini mustahkamlashga uringan bir paytda, muqobil yo'nalishlar paydo bo'lib, hukmron me'yoriy tartibga qarshi chiqdi. Shu sharoitda Ehrenreich feministik va antifeministik harakatlarni baholab, shunday deydi: "Go'yoki, oilaviy ish haqi tizimining qadimiy beqarorligiga yuz tutgan ayollar ikkita qarama-qarshi strategiyani tanladilar: (ramziy ma'noda) undan chiqib teng daromad va imkoniyatlar uchun kurashish, yoki uyda qolib erkaklarni o'zlariga yanada mahkamroq bog'lashga urinib ko'rish" (1983, 151-bet). Shu bois, antifeministik harakatning oilaparvarligini eski patriarxal kelishuvni tiklashga urinish deb talqin qilish mumkin. Bunda feministlar erkaklar o'rtasidagi hozirgi norozilik va begonalashuvni ayblash uchun qulay vosita bo'lib xizmat qiladi (Chafetz va Dworkin, 1987). Darhaqiqat, Staceyning (1987, 11-bet) ta'kidlashicha, "feminizm hozirgi Amerika jamiyatida keng tarqalgan intimlik va yo'qotilgan xavfsizlikka bo'lgan sog'inch va nostalgiya uchun ramziy chaqmoqtutgich sifatida xizmat qilmoqda."

Biroq, ijtimoiy o'zgarishlar tez sur'atda sodir bo'layotgan davrlarda yuzaga keladigan kurashlarni shoshilinch ravishda toifalash o'rniga, xayrixohlik va ochiq fikr bilan o'rganish lozim. Shu bois, Ginsburg (1984) AQShdagi ayollar orasidagi abortga qarshi faollikni reaksiya emas, balki strategik deb baholaydi. U ko'plab ayollar jinsiylikni reproduktivlik (farzand ko'rish) va uy-ro'zg'or hayotidan ajratishni o'z manfaatlariga zid deb qabul qilishlarini ta'kidlaydi. Chunki bu, xususan, erkaklarga jinsiy munosabatlar natijasida yuzaga keladigan homiladorlik uchun javobgarlikni zimmalariga olish zaruratini kamaytiradi. Bu xavotir va u ifodalaydigan umumiy tashvish asossiz emas (English 1984) hamda bolali ayollarni hissiy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashning bugungi kunda muqobil yo'llari yo'qligidan dalolat beradi. Xuddi shunday, Stacey (1987) postindustrial davrning "postfeministik" ongining turli shakllarini aniqlaydi. U hozirda ish va oilaga nisbatan siyosatdan holi feminist qarashlar bilan nikohda barqarorlik va yaqinlikni oshirishga qaratilgan shaxsiy strategiyalarning murakkab va ko'pincha ziddiyatli uyg'unlashuvi sodir bo'layotganini taklif qiladi.

Mafkuraviy jihatdan, buzilgan patriarxal kelishuvlar aybdorlarni izlashga, an'anaviyroq tartibning ishonchiligi tomon intilishga yoki o'zgarishlar haddan tashqari ilgarilab ketgani yoki noto'g'ri yo'nalishga burilgani haqidagi umumiy tuyg'uga sabab bo'layotgandek ko'rinadi. Rozenfelt va Staceyning (1987) postfeminizm haqidagi fikrlari hamda Staceyning (1986) konservativ oilaparvar feminizm to'g'risidagi muhokamasi, garchi ular neokonservativ nutqning vahimali asoslarini tanqid qilsa-da, unda ifodalangan ayrim asosli tashvishlarni jiddiy qabul qiladi.

XULOSA

Ayollarning strategiyalari va murosa mexanizmlarini tizimli tahlil qilish patriarxal tizimlarning madaniy, sinfiy va zamoniy xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi hamda erkaklar va ayollarning resurslar, huquqlar va majburiyatlar uchun bir-biriga qarshi turishi, moslashishi va nizo qilishini ochib beradi. Bunday tahlillar sinf, irq va jins o'rtasidagi munosabatlarning nazariy muhokamalarida ko'zga tashlanadigan sun'iy bo'linishlarni yo'qotadi, chunki ishtirokchilarning strategiyalari bir nechta cheklovlar asosida shakllanadi. Ayollarning strategiyalari doimo ularning bozor (mehnat) va oilaviy (uy-ro'zg'or) imkoniyatlarini belgilaydigan, cheklaydigan va o'zgartiruvchi yashirin qoidalar vazifasini bajaradigan aniq patriarxal kelishuvlar doirasida amalga oshiriladi. Ushbu maqolada muhokama qilingan erkaklar hukmronligining ikki ideal-tipik tizimi ayollar muzokaralar olib boradigan va strategiya tuzadigan turli asoslarni ta'minlaydi va ularning har biri qarshilik ko'rsatish va kurashish shakllari hamda imkoniyatlariga ta'sir qiladi. Patriarxal kelishuvlar nafaqat ayollarning oqilona tanlovlarini belgilaydi, balki ularning gender subyektivligining ong osti jihatlarini ham shakllantiradi. Chunki bu kelishuvlar ularning erta ijtimoiylashuv davriga, shuningdek, voyaga yetgan davrdagi madaniy muhitiga chuqur singib ketgan (Kandiyoti 1987a, 1987b).

Patriarxatning umumiy tushunchasiga emas, balki aniqroq belgilangan patriarxal kelishuvlarga e'tibor qaratish o'zgarish jarayonlarini batafsil tahlil qilish uchun yaxshiroq imkoniyatlar yaratadi. G'arb jamiyatlarida jinsiy tasavvurlar va axloqiy normalardagi o'zgarishlarni tahlil qilar ekan, Janeway (1980) Tomas Kuhn (1970) tomonidan ilgari surilgan ilmiy paradigmalar atamasidan foydalanadi. U bunga o'xshatib, jamiyatda keng qabul qilingan jinsiy qadriyatlar va amaliyotlarni "jinsiy paradigmalar" deb ataydi — ular muayyan davrda "me'yor" bo'lib xizmat qiladi, biroq ular ham o'zgaruvchan: ayniqsa qachonki mavjud qoidalar ishlamay qolsa, hayotdagi anomaliyalar inkor qilib bo'lmaydigan holga kelsa va kundalik tajriba ilgari qabul qilingan sabab-oqibat bog'liqligiga zid bo'lsa (1980, 582-bet). Lekin bu jinsiy paradigmalarni to'liq tushunib bo'lmaydi, agar ular aniq patriarxal kelishuvlar asosida ko'rib chiqilmasa. Janewayning fikricha, G'arbda ayol iffatiga bo'lgan talab mulkni qonuniy farzandlarga meros qoldirish zarurati bilan bog'liq bo'lgan. Bu holat umumiy naqd pul iqtisodiyoti paydo bo'lishidan oldingi davrga tegishli.

Kuhning analogiyasini yanada chuqurroq ko'rib chiqadigan bo'lsak, patriarxal kelishuvlarning "normal" va "inqirozli" bosqichlari mavjudligini ko'rsatish mumkin. Bu tushuncha dunyoda sodir bo'layotgan voqealarni talqin qilish usulimizni o'zgartiradi. Shunday qilib, klassik patriarxatning normal bosqichida ko'plab ayollar amalda iqtisodiy qiyinchiliklar va beqarorlikka duch kelishgan. Ular farzand ko'ra olmaganlari uchun ajrashishga majbur bo'lishgan, yoki yetim qolib o'z oilalaridan yordam ololmagan, yoki tirik o'g'illari bo'lmagani uchun himoyasiz qolishgan, yoki undan ham yomoni - "noshukur" o'g'illarga ega bo'lishgan. Biroq, ular shunchaki "omadsiz", g'ayrioddiy holatlar va boshqa jihatdan mantiqli bo'lgan tizimning tasodifiy qurbonlari deb hisoblangan. Faqatgina tizim inqirozga uchragan paytdagina har qanday tartibning tizimli ziddiyatlari ochiq-oydin ko'rinadi. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning nikoh va ajralishlarga, oila qurilishiga va jinsga asoslangan mehnat taqsimotiga ta'siri muqarrar ravishda ayollar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning asosiy, yashirin farazlarini shubha ostiga qo'yadi.

Biroq, yangicha strategiyalar shunchaki eskilarining xarobalaridan paydo bo'lib, yangi kelishuvni silliq yaratmaydi. Aksincha, ular ko'pincha murakkab va ziddiyatli bo'lgan shaxsiy va siyosiy kurashlar orqali shakllanadi (Strathern 1987ga qarang). Muayyan patriarxal tizimning buzilishi qisqa muddatda ayollar orasida paradoksal tarzda erkaklar mas'uliyati va nazoratini oshirishga intilish ko'rinishidagi passiv qarshilikni keltirib chiqarishi mumkin. Turli ijtimoiy mavqedagi ayollarning qisqa va o'rta muddatli strategiyalarini chuqurroq tushunish feministik ongni belgilashda etnosentrik yoki sinfiy chegaralangan ta'riflarga tuzatish kiritishi mumkin.

IZOHLAR

1. Murakkab tushunchani ifodalash uchun yaratilgan barcha atamalar singari, "patriarxal kelishuv" atamasi ham murakkab murosani anglatadi. U gender munosabatlarini tartibga soluvchi belgilangan qoidalar va qoliplar mavjudligini ko'rsatish uchun mo'ljallangan. Bu qoidalarga ikkala jins ham moslashadi va rozi bo'ladi, ammo ular bahsli bo'lishi, qayta belgilanishi va qayta muhokama qilinishi mumkin. Ba'zi taklif etilgan muqobil atamalar "shartnoma", "bitim", yoki "ssenariy" edi. Biroq bu atamalar "kelishuv" so'zining ichki murakkabligi — ya'ni har doim aniq va teng shartlar asosida bo'lmasligi, murosali va tarang xarakterini to'liq ifodalay olmaydi. Men Cynthia Cockburn va Nels Johnson'ga minnatdorchilik bildiraman — ular e'tirof etganidek, ingliz

tilidagi "bargain" so'zi odatda ikki teng tomon o'rtasidagi kelishuvni anglatadi, bu esa mening ishlatgan ma'nomga to'g'ri kelmaydi. Chunki bu yerda ayollar, odatda, zaifroq pozitsiyadan harakat qilgan holda murosa qilishadi, bu esa no-teng almashinuvni anglatadi.

2. Men bu tahlilga nafaqat Janubi-Sharqiy Osiyoni, balki Shimoliy O'rta yer dengizi mintaqalarini kiritmaganman, garchi bu hududlarda ham ayollar iffatiga oid qadriyatlar kuchli bo'lsa-da. Sababi, bu mintaqalar patriloal va patrilineal tizimlar hukmron bo'lgan hududlar emas. Shu bois, ikki tomonlama qarindoshlik tizimiga ega bo'lgan jamiyatlar, masalan Gretsiya, boshqa g'oyaviy jihatlardan muhim o'xshashliklarga ega bo'lsa-da, mos kelmaydi. Chunki bu jamiyatlarda ayollar mol-mulkni meros qilib olishadi, unga egalik qilishadi va ko'p hollarda sep tarzida iqtisodiy resurslar bilan ta'minlanadilar. Ammo bu ko'rsatilgan geografik chegaralarda g'oya va amaliyotning to'liq bir xilligi mavjud degan ma'noni anglatmaydi. Misol uchun, Hindiston subkontinentida ayollarga sezilarli darajada turlicha ta'sir ko'rsatadigan muhim farqlar mavjud (Dyson va Moore 1983). Aksincha, hatto ikki tomonlama qarindoshlik tizimi mavjud hududlarda ham klassik patriarxatning barcha jihatlari, ya'ni mol-mulk, yashash joyi va erkak avlodi orqali nasab davom etishi kabi xususiyatlar ma'lum sharoitlarda birlashishi mumkin (Denich 1974). Men shuni ta'kidlamochimanki, klassik patriarxatning eng aniq va oson aniqlanadigan namunalarini matnda ko'rsatilgan chegaralar doirasida topish mumkin.

MANBALAR

Abu, K. 1983. "The Separateness of Spouses: Conjugal Resources in an Ashanti Town." Pp. 156-68 in *Female and Male in West Africa*, edited by C. Oppong. London: George Allen & Unwin.

Agarwal, B. 1987. "Women and Land Rights in India." Unpublished manuscript.

Azari, F. 1983. "Islam's Appeal to Women in Iran: Illusion and Reality." Pp. 1-71 in *Women of Iran: The Conflict with Fundamentalist Islam*, edited by F. Azari. London: Ithaca Press.

Barrett, M. 1980. *Woman's Oppression Today*. London: Verso.

Beechey, V. 1979. "On Patriarchy." *Feminist Review* 3:66-82.

- Boudhiba, A. 1985. *Sexuality in Islam*. London: Routledge & Kegan Paul.
- Cain, M., S. R. Khanan, and S. Nahar. 1979. "Class, Patriarchy, and Women's Work in Bangladesh." *Population and Development Review* 5:408-16.
- Caldwell, J. C. 1978. "A Theory of Fertility: From High Plateau to Destabilization." *Population and Development Review* 4:553-77.
- Chafetz, J. S. and A. G. Dworkin. 1987. "In Face of Threat: Organized Antifeminism in Comparative Perspective." *Gender & Society* 1:33-60.
- Conti, A. 1979. "Capitalist Organization of Production Through Non-capitalist Relations: Women's Role in a Pilot Resettlement Project in Upper Volta." *Review of African Political Economy* 15/16:75-91.
- Cott, N. F. 1978. "Passionlessness: An Interpretation of Victorian Sexual Ideology, 1790-1850." *Signs: Journal of Women in Culture and Society* 4:219-36.
- Delphy, C. 1977. *The Main Enemy*. London: Women's Research and Resource Centre.
- Denich, B. S. 1974. "Sex and Power in the Balkans." Pp. 243-62 in *Women, Culture and Society*, edited by M. Z. Rosaldo and L. Lamphere. Palo Alto, CA: Stanford University Press.
- Dey, J. 1981. "Gambian Women: Unequal Partners in Rice Development Projects." Pp. 109-22 in *African Women in the Development Process*, edited by N. Nelson. London: Frank Cass.
- Dyson, T. and M. Moore. 1983. "On Kinship Structures, Female Autonomy and Demographic Behavior." *Population and Development Review* 9:35-60.
- Ehrenreich, B. 1983. *The Hearts of Men*. London: Pluto Press.
- Eisenstein, Z. 1978. "Developing a Theory of Capitalist Patriarchy and Socialist Feminism." Pp. 5-40 in *Capitalist Patriarchy and the Case for Socialist Feminism*, edited by Z. Eisenstein. New York: Monthly Review Press.
- English, D. 1984. "The Fear That Feminism Will Free Men First." Pp. 97-102 in *Powers of Desire: The Politics of Sexuality*, edited by A. Snitow, C. Stansell, and S. Thompson. New York: Monthly Review Press.

Etienne, M. and E. Leacock (eds.). 1980. *Women and Colonization*. New York: Praeger.

Ginsburg, F. 1984. "The Body Politic: The Defense of Sexual Restriction by Anti-Abortion Activists." Pp. 173-88 in *Pleasure and Danger: Exploring Female Sexuality*, edited by C. S. Vance. London: Routledge & Kegan Paul.

Gordon, L. 1982. "Why Nineteenth Century Feminists Did Not Support (Birth Control) and Twentieth Century Feminists Do: Feminism, Reproduction and the Family." Pp. 40-53 in *Rethinking the Family: Some Feminist Questions*, edited by B. Thorne and M. Yalom. New York: Longman.

Greeley, M. 1983. "Patriarchy and Poverty: A Bangladesh Case Study." *South Asia Research* 3:35-55.

Guyer, J. I. and P. E. Peters. 1987. "'Introduction' to Conceptualizing the Household: Issues of Theory and Policy in Africa." *Development and Change* 18:197-213.

Hanger, J. and J. Moris. 1973. "Women and the Household Economy." Pp. 209-44 in *Mwea: An Irrigated Rice Settlement in Kenya*, edited by R. Chambers and J. Moris. Munich: Weltforum Verlag.

Hartmann, H. 1981. "The Unhappy Marriage of Marxism and Feminism: Towards a More Progressive Union." Pp. 40-53 in *Women and Revolution*, edited by L. Sargent. London: Pluto Press.

Janeway, E. 1980. "Who Is Sylvia? On the Loss of Sexual Paradigms." *Signs: Journal of Women in Culture and Society* 5:573-89.

Johnson, K. A. 1983. *Women, the Family and Peasant Revolution in China*. Chicago: Chicago University Press.

Kandiyoti, D. 1984. "Rural Transformation in Turkey and Its Implications for Women's Studies." Pp. 17-29 in *Women on the Move: Contemporary Transformations in Family and Society*. Paris: UNESCO.

---. 1985. *Women in Rural Production Systems: Problems and Policies*. Paris: UNESCO.

---. 1987a. "Emancipated but Unliberated? Reflections on the Turkish Case." *Feminist Studies* 13:317-38.

---. 1987b. "The Problem of Subjectivity in Western Feminist Theory." Paper presented at the American Sociological Association Annual Meeting, Chicago.

Kuhn, T. 1970. *The structure of Scientific Revolutions* (2nd ed.). Chicago: Chicago University Press.

Mann, K. 1985. *Marrying Well: Marriage, Status and Social Change Among the Educated Elite in Colonial Lagos*. Cambridge: Cambridge University Press.

Mbilinyi, M. J. 1982. "Wife, Slave and Subject of the King: The Oppression of Women in the Shambala Kingdom." *Tanzania Notes and Records* 88/89:1-13.

McDonough, R. and R. Harrison. 1978. "Patriarchy and Relations of Production." Pp. 11-41 in *Feminism and Materialism*, edited by A. Kuhn and A. M. Wolpe. London: Routledge & Kegan Paul.

Meeker, M. 1976. "Meaning and Society in the Near East: Examples from the Black Sea Turks and the Levantine Arabs." *International Journal of Middle East Studies* 7:383-422.

Mernissi, F. 1975. *Beyond the Veil: Male-Female Dynamics in a Muslim Society*. New York: Wiley.

Mies, M. 1982. "The Dynamics of Sexual Division of Labour and the Integration of Women into the World Market." Pp. 1-28 in *Women and Development: The Sexual Division of Labour in Rural Societies*, edited by L. Beneria. New York: Praeger.

1986. *Patriarchy and Accumulation on a World Scale: Women in the International Division of Labour*. London: Zed.

Mitchell, J. 1973. *Women's Estate*. New York: Vintage.

---. 1986. "Reflections on Twenty Years of Feminism." Pp. 34-48 in *What is Feminism?* edited by J. Mitchell and A. Oakley. Oxford: Basil Blackwell.

Molyneux, M. 1985. "Mobilization Without Emancipation? Women's Interests, the State and Revolution in Nicaragua." *Feminist Studies* 11:227-54.

Munachonga, M. L. 1982. "Income Allocation and Marriage Options in Urban Zambia: Wives Versus Extended Kin." Paper presented at the

Conference on Women and Income Control in the Third World, New York.

Murray, C. 1987. "Class, Gender and the Household: The Developmental Cycle in Southern Africa." *Development and Change* 18:235-50.

Ortner, S. 1978. "The Virgin and the State." *Feminist Studies* 4:19-36.

Roberts, P. Forthcoming. "Rural Women in Western Nigeria and Hausa Niger: A Comparative Analysis," in *Serving Two Masters*, edited by K. Young. New Delhi: Allied Publishers.

Rosenfelt, D. and J. Stacey. 1987. "Second Thoughts on the Second Wave." *Feminist Studies* 13:341-61.

Sharma, U. 1980. *Women, Work and Property in North West India*. London: Tavistock.

Stacey, J. 1983. *Patriarchy and Socialist Revolution in China*. Berkeley: University of California Press.

---. 1986. "Are Feminists Afraid to Leave Home? The Challenge of Conservative Pro-Family Feminism." Pp. 219-48 in *What is Feminism?* edited by J. Mitchell and A. Oakley. Oxford: Basil Blackwell.

----. 1987. "Sexism by a Subtler Name? Postindustrial Conditions and Postfeminist Consciousness in the Silicon Valley." *Socialist Review* (Nov.):7-28.

Strathern, M. 1987. "An Awkward Relationship: The Case of Feminism and Anthropology." *Signs: Journal of Women in Culture and Society* 12:276-92.

Wolf, E. 1966. *Peasants*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.

---, 1982. *Europe and the People Without History*. Berkeley: University of California Press.

Wolf, M. 1972. *Women and the Family in Rural Taiwan*. Palo Alto, CA: Stanford University Press.

---. 1974. "Chinese Women: Old Skills in a New Context." Pp. 157-72 in *Women, Culture and Society*, edited by M. Z. Rosaldo and L. Lamphere. Palo Alto, CA: Stanford University Press.

---. 1975. "Woman and Suicide in China." Pp. 111-41 in Women in Chinese Society, edited by M. Wolf and R. Witke. Palo Alto, CA: Stanford University Press.

Young, I. 1981. "Beyond the Unhappy Marriage: A Critique of the Dual Systems Theory." Pp. 43-69 in Women and Revolution, edited by L. Sargent. London: Pluto Press.

Young, S. 1977. "Fertility and Famine: Women's Agricultural History in Southern Mozambique." Pp. 66-81 in The Roots of Rural Poverty in Central and Southern Africa, edited by R. Palmer and N. Parsons. London: Heinemann.

Deniz Kandiyoti — Angliyadagi Richmond kollejining (Surrey) Ijtimoiy fanlar bo'limi katta o'qituvchisi. U 1969-yildan 1980-yilgacha Turkiyada dars bergan va ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Uning ilmiy ishlari va nashrlari ayollar va taraqqiyot, Yaqin Sharqda ayollar, shuningdek, feministik nazariya sohalariga oid.